UO‘K: 39(=512.154)(575.1)“18/19”

O‘ZBEKISTON QIRG‘IZLARI MODDIY MADANIYATINING ETNIK JIHATLARI

(*turarjoylar misolida*)

O.A. Abduraupov

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududlarida yashagan qirg‘iz etnosi moddiy madaniyatining etnik jihatlari turarjoylar tahlili asosida yoritib berilgan. Shuningdek, yarimo‘troq va yarimko‘chmanchi aholining doimiy, vaqtinchalik, ko‘chma va mavsumiy turarjoylari, ularni tiklash va jihozlash an’analari hamda Markaziy Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan o‘troq o‘zbek va tojik etnoslarining turarjoylari bilan o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *moddiy madaniyat, turar-joylar, qirg‘iz etnik guruhi, yarim ko‘chmanchi aholi, an’anaviy qurilish, kapa, alachik, Markaziy Osiyo.*

В статье на основе сведений исторических источников и научной литературы освещаются жилища киргизского этноса, проживавшего на территории современного Узбекистана в конце XIX – начале XX веков. Проанализированы постоянные, временные, передвижные и сезонные жилища полуоседлого и полукочевого населения, традиции их строительства и обустройства. Рассмотрены сходства и различия с жилищами оседлых узбекского и таджикского этносов Центральной Азии.

Ключевые слова: *материальная культура, жилища, киргизский этнос, полукочевое население, традиционное строительство, капа, алачик, Центральная Азия.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon xalqlarining integratsiyalashuvi va iqtisodiyotda globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bir paytda etnik hamda madaniy o‘zlikni anglash, lokal etnohududiy madaniyatlar va milliy qadriyatlarni saqlab qolishning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda milliylik omilining kuchayishi, jahon xalqlari orasida o‘z tarixi va an’anaviy madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Shu bois xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi jarayonlari va madaniy xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan qirg‘izlar moddiy madaniyatining etnik jihatlari, xususan, ularning an’anaviy turarjoylari, ularni qurish, tiklash usullarini o‘rganish natijalari hamda mavzuga oid yangi dala-etnografik ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur davrda qirg‘izlarning moddiy madaniyatida an’anaviylik ustuvor bo‘lsa-da, o‘troq aholi ta’sirida o‘zgarganligi aniqlangan hamda ularning turarjoylari ham transformatsiyaga uchraganligi ko‘rsatib berilgan.

MATERIAL VA METODLAR

Ushbu maqolani tayyorlashda, asosan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda dala etnografik amaliyot manbalariga tayanildi [9, 16]. Xususan, O‘zbekiston hududida yashayotgan qirg‘iz etnosi turarjoylarining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqadagi qirg‘izlarning turarjoylaridan biri – o‘tovni tayyorlash va tiklash usullarini yoritishda keyingi yillarda nashr etilgan kitoblar hamda dala etnografik ma’lumotlar ham muayyan ahamiyatga ega bo‘ldi [10, 17, 18, 21].

Maqolaning metodologik asosini tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tarixiy-retrospektiv yondashuv, dala tadqiqotlari (suhbat, intervyu, kuzatuv) usullari, ilmiylik va xolislik tamoyillari tashkil etadi. Qiyosiy tahlil va dala tadqiqotlari usullari (suhbat, intervyu,

kuzatuv) qirg‘iz etnosi moddiy madaniyatidagi o‘ziga xoslik va o‘zgarishlar dinamikasini yoritishda, ijtimoiy hayotning boshqa hodisalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda va aloqadorlikda, aniq tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda va tarixiy-retrospektiv asosda ko‘rib chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Markaziy Osiyo xalqlari madaniy merosining ajralmas qismi sifatida turarjoylar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular insoniyatning moddiy madaniyatida qadimdan shakllangan va mustahkam o‘rin egallagan muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. An’anaviy uy-joylarda xalqning boy tarixi, milliy dunyoqarashi, oilaviy hamda ijtimoiy munosabatlari, shuningdek, turli etnografik jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Turarjoylar taraqqiyoti muayyan hududning tabiiy-geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, xo‘jalik va turmush tarzi, diniy qarashlari, urf-odat va an’analari kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Shu bois an’anaviy turarjoylarni etnologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etish mahalliy aholining etnomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Etnologiya fanida moddiy madaniyatni o‘rganishda quyidagi tasniflash turlari qabul qilingan: turarjoylar va uy-joylar, kiyimlar va oziq-ovqatlar. Bular o‘z navbatida bir nechta tarkibiy qismlardan iborat [1. B. 246]. Moddiy madaniyatning ushbu komponentlari har biri muayyan etnos turmushining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, ular an’anaviy madaniyatda har bir etnosning etnik tarixi, etnoxo‘jalik va etnomadaniy xususiyatlarida aks etadi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida turli ko‘chma turarjoy shakllari vujudga kelgani ma’lum. Xususan, tadqiq etilayotgan hududda, shuningdek, butun O‘rta Osiyodagi ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi chorvador aholi orasida o‘tov, kapa va lochiq kabi ko‘chma uylar keng tarqalgan.

Chorvador jamoalar o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, turmush tarzi va etnik an’analarini inobatga olgan holda turli ko‘rinishdagi ko‘chma turarjoylarni barpo etganlar.

Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududlarida joylashgan qirg‘izlarning salmoqli qismi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘troqlikka o‘tib bo‘lgan edi. Ushbu guruhga mansub qirg‘izlar dehqonchilik vohalari (qishloqlar)da turg‘unlashib, asosan, yerga ishlov berish bilan mashg‘ul edilar. Ayni vaqtda dehqonchilik vohalarining atrofida joylashgan qirg‘izlar yarimko‘chmanchi va yarimo‘troq holda turmush kechirgan. Chorvador etnoslarda bo‘lgani kabi qirg‘izlar ham qishlov uchun qoyalar bilan o‘ralib, shamoldan himoyalangan tog‘ daralari yoki qishda ham chorvani boqish imkonini beruvchi tog‘oldi vohalari hamda dehqonchilik uchun o‘zlashtirilmagan vodiyning tekislik qismini, o‘tloq hududlarni tanlaganlar.

Tog‘ daralari va tog‘oldi hududlarida joylashgan qirg‘iz urug‘-qabilalarining har biriga tegishli alohida qishlash (*qishlov*) manzilgohlari bo‘lgan. Ushbu manzilgohlar vaqtinchalik (*yozlik*) bo‘lib, bahor kelib, kunlar isiy boshlashi bilan qirg‘izlar boshqa chorvador etnoslar kabi ozuqaga boy yaylovlarga ko‘chib o‘tganlar.

Odatda, qirg‘izlar manzilgohlarda “*bir urug‘*”, “*bir qabila*” tamoyili asosida joylashganlar. Ya’ni bir urug‘, bir qabilaga mansub qirg‘iz oilalari o‘z o‘tovlarini yonma-yon tikkanlar, shu tariqa ovul jamoasi tashkil topgan. Ovul jamoasining tashkil topishida qavm-qarindoshlik omilidan tashqari iqtisodiy omil ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ovul jamoasining a’zolari yaylov maydonlari va chorva mollarini saqlab qolish, uni begona ovul jamoasi ta’siridan muhofaza qilish, o‘tovni yangi joyga ko‘chirish kabi yumushlarni birga bajarganlar.

Dehqonchilik vohalarida yoki unga juda yaqin joylashgan qirg‘izlarning manzilgohlarida “qo‘rg‘oncha” tipidagi turarjoylar ham mavjud bo‘lgan. Tadqiqotchi V.M.Ploskix bu haqida shunday yozgan: “Farg‘onadagi qirg‘iz qo‘rg‘onchalari odatda o‘troq dehqon o‘zbek va tojik aholi qishloqlari tevarak-atrofida to‘plangan edi” [2. B. 244].

Ko‘chmanchi chorvador qabilalarning qishlov manzilgohlari yarimo‘troqlikka o‘tish jarayonida qo‘rg‘oncha tipida shakllangan turarjoylardir. Tadqiqotchilar qo‘rg‘oncha tipdagi turarjoylar yarimo‘troq aholida XVIII asr oxirlarida paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar [3. B. 6, 218]. Bunday turarjoylar uchun eng xarakterli jihat shuki, ular baland himoya devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, unda bir urug‘ga mansub oilalar yashagan. Qolaversa, ushbu turarjoylar shu urug‘ oqsoqolining yetakchiligida qurilib, ba’zida o‘sha inson nomi bilan atalgan. Masalan, Namangan viloyati Davlatobod tumani “Yelxon” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi qirg‘izlarning “qutchi” urug‘iga mansub Muhammadjon Artiqovning axborot berishicha, uning bobolari qarindosh-urug‘i bilan 9–11 paxsa bilan o‘rab olingan qo‘rg‘onda yashaganlar [4]. V.Nalivkin va M.Nalivkina Farg‘ona vodiysidagi o‘troq aholi ayollarining turmush tarziga bag‘ishlangan asarida ham qirg‘izlar yashaydigan hududda qishloqlar kam, aksincha, atrofi alohida-alohida baland paxsa devorlar bilan o‘ralgan

qo‘rg‘onchalar ko‘p uchrashi to‘g‘risida ma’lumot bergan [5, 7]. Demak, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston va unga tutash hududlarda joylashgan qirg‘izlar bir necha tipdagi (“*ovul*”, *“qo‘rg‘oncha”, “qishloq”* – qishlov) manzilgohlarda yashaganlar. Ushbu manzilgohlarda tashkil topgan uy-joylar ularning turmush-tarzi va xo‘jalik mashg‘ulotlariga mos holda tiklangan.

Ilmiy adabiyotlarda chorvador qabilalarning an’anaviy uy-joylariga nisbatan “vaqtinchalik”, “ko‘chiriladigan”, “ko‘chma” uylar kabi atamalarni qo‘llash qabul qilingan. Bunday turdagi uy-joylar “*uy”, “kigiz uy”, “qirg‘iz uy”, “bo‘z uy”, “qora uy”, “oq uy”, “qizil uy”* va *“o‘tov*” kabi nomlar bilan atalib kelingan. Bular orasida “o‘tov” atamasi ilmiy iste’molda ko‘p qo‘llaniladi. Zero, “o‘tov” ko‘chma uylarning eng ommalashgan turi edi. O‘rta Osiyoning ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi chorvador xalqlarida ko‘chma uylarning o‘tov, kapa va lochiq turlari keng tarqalgan.

Shuni qayd etish joizki, qirg‘izlarning ko‘chma uylari nomlanishida etnohududiy xususiyat ham kuzatiladi. Masalan, ko‘chma uy, ya’ni o‘tovning bunday turi Farg‘ona vodiysining tog‘oldi hududlarida yashovchi aholi orasida “qirg‘iz uy” deb atalgan. Bu nom ushbu uylarda qirg‘iz xalqining o‘ziga xos an’analari saqlanib kelishi bilan izohlanadi. K.I.Antipina esa o‘zining qirg‘izlar madaniyatiga bag‘ishlangan asarida “qirg‘iz uy” nomi uni aynan ushbu etnosdan xarid qilgan etnoslar tomonidan berilgan bo‘lishi mumkin, [6. B. 156] deb taxmin qiladi. Lekin bunday turdagi ko‘chma uylarni qirg‘izlarning o‘zlari boshqa turli nomlar bilan ataganlar. Jizzax viloyati Baxmal va Zomin tumanlaridagi qirg‘izlar ko‘chma uyning bu turiga nisbatan *“o‘tov”* atamasini ko‘proq ishlatgan holda ayni vaqtda uni “*xon o‘tov”, “oq o‘tov”, “bo‘z uy”, “qora o‘tov”* deb ham ataganlar [7].

Qipchoqlarda bunday turdagi ko‘chma uylar “qora uy” deb nomlanishi bilan birga, “*oq uy*”, *“o‘tov”* va *“o‘rgov”* deb ataganlar [8. B. 225]. Qirg‘izlarning qirg‘iz-qipchoq urug‘i yashaydigan Andijon viloyati Jalaquduq tumanida Abdullabiy qishlog‘ida nikoh uyi *“o‘rgov”* deb atalgan [9]. “Oq uy”ni boshqa o‘tovlardan ajratib turuvchi jihati bu uning ustki qismi oq rangdagi kigiz bilan qoplanganligidadir. Ko‘chmanchi chorvador xalqlar an’anasiga ko‘ra, yosh kelin-kuyovlar uchun ana shunday oq kigiz bilan usti qoplangan yangi nikoh uyi tiklangan.

K.Sh.Shoniyozov o‘z tadqiqotlarida ko‘chma uylarning qipchoqlarda qanday nomlanganligi xususida to‘xtalib, ularda “qora uy” deb kigizi eskirib, rangi o‘chgan ko‘chma uyga nisbatan aytilishi, yangi turmush qurgan yoshlarga atab tiklangani esa *“oq uy”, “o‘tov”, “o‘rgov”* kabi nomlar bilan atalishini keltirib o‘tgan [10. B. 225].

Janubiy qirg‘izlar orasida katta o‘tovlar “ordo uy” nomi bilan tanilgan. Bunday uylar asosan badavlat chorvadorlar buyurtmasiga ko‘ra maxsus tayyorlangan. Ularning keragalari kumushdan ishlangan oshiq-moshiqlar bilan o‘zaro bog‘langan, har bir uvuq tayoqlariga esa turli shakldagi yaltiroq temir bezaklar o‘rnatilgan [6. B. 170].

O‘tovlar gumbaz qismining tuzilishiga qarab asosan ikki turga bo‘linadi: biri turkiy xalqlarga xos yarim doirasimon shakl, ikkinchisi esa mo‘g‘ullarga xos konussimon ko‘rinishdir. Shu bilan birga, olimlar ularni farqlovchi boshqa belgilarni ham qayd etadilar. Masalan, G.N.Potanin turkiy xalqlar o‘tovida keraga ustiga kigiz yopishdan avval qamish bo‘yra yoki xashak qo‘yilishini o‘ziga xos xususiyat sifatida ta’kidlaydi [11. B. 108]. Nikolay Xaruzin esa bu holatni qadimgi chaylalarni daraxt po‘stlog‘i (ko‘pincha qayrag‘och) yoki xashak bilan yopish an’anasining davomi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, mazkur usul tarixiy an’ananing saqlanib qolgan ko‘rinishidir. Mo‘g‘ul o‘tovlarida esa keraga odatda faqat kigiz bilan qoplangan bo‘lib, yuqoridagi qo‘shimcha qatlam qo‘llanilmagan [12. B. 30].

Chorvador xalqlarning bunday uy-joylarining paydo bo‘lish tarixi, ularning turlari, tiklash va jihozlash usullari, ko‘chma uylardagi etnik tafovutlar hamda u bilan bog‘liq urf-odatlar tadqiqotchilar tomonidan yaxshi o‘rganilgan [10, 12, 13, 14, 15].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, qirg‘izlarning o‘tovlari tuzilishi va jihozlanishi jihatidan Markaziy Osiyodagi chorvador o‘zbek, qozoq, turkman, qoraqalpoqlarning ko‘chma uy-joylari bilan ko‘p jihatdan o‘xshash, ayni vaqtda bu borada etnik tafovutlar ham mavjud. Bunday tafovutlar asosan, o‘tov gumbaz qismining shakli, uni tiklash va jihozlanishida namoyon bo‘ladi. Masalan, vodiy qipchoqlarining o‘tovlari gumbaz qismi balandligi bilan boshqa etnos o‘tovlaridan farqlanadi [10. B. 226].

O‘zbekiston va unga tutash hududlarda yashagan qirg‘iz o‘tovlarining tikilishi hamda jihozlash bilan bog‘liq an’analariga to‘xtalamiz. Barcha chorvadorlar kabi qirg‘izlar o‘zlarining ko‘chma uylarini tiklash va jihozlashda avvalo, mahalliy tabiiy shart-sharoitni inobatga olganlar. Qolaversa, bunda ularning an’anaviy turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Ko‘chma uylarni tiklashda kigiz, turli o‘lchamdagi arqon, bog‘ichlar va tol yog‘ochlari qurilish materiali sifatida ishlatilgan. O‘tovni tiklashda asosan quyidagi jarayon amalga oshirilgan. Dastavval “*qora uy*”ning yog‘ochdan sinchi (qabirg‘asi) tiklanib, u “*uyning suyagi*” deb atalgan. Alohida-alohida qismlarni birlash-

tirish yo‘li bilan “*uyning suyagi*” tiklangan. Uyning yon devorlari balandligi 160–170 sm, diametri 30–35 mm bo‘lgan tol xodachalardan oddiy usul bilan bo‘-lak-bo‘lak qilib tayyorlangan “*qanot*”lar (panjara)ni bir-biriga birlashtirish orqali yasalgan. Hosil bo‘lgan bunday panjara devorni qirg‘izlar “*uyning keragasi*” yoki “*keraga*” deb atagan. Tol xodachalardan ko‘chma uyning katta-kichikligini hisobga olib “*keraga*” tayyorlangan. Bunday “*keraga*” Farg‘ona vodiysi qir-g‘izlarida avval yaxlit holda tayyorlanganidan so‘ng “*qanot*”larga bo‘lingan.

O‘tovning yog‘och qismlari qirg‘iz ustalari tomonidan tayyorlangan. Aytish joizki, o‘tovning yog‘och qismlarini tayyorlashda boshqa chorvador etnoslar-ga nisbatan qirg‘izlar mohir bo‘lganlar. Qirg‘iz usta-lari tomonidan tayyorlangan o‘tovning yog‘och qismlari nafaqat qirg‘izlar, balki boshqa etnoslar tomonidan ham sotib olingan.

Agar laqay, qo‘ng‘irot, qarluq, do‘rmon kabi o‘z-bek urug‘larida *“qora uy”*ning yon panjaralari tiklan-gandan so‘ng eshik o‘rnatilsa, qirg‘izlarning ayrim guruhlarida o‘tovni tiklash avvalo eshikni o‘rnatish-dan boshlangan [15. B. 33]. Qirg‘iz o‘tovi eshigini shamolning yo‘nalishini hisobga olgan holda ko‘pin-cha janubga qarab o‘rnatganlar.

O‘tovning eshigi turli ko‘rinishga ega bo‘lib, ko‘p hollarda eshik o‘rnida 1,3–1,7 m balandlikda, 70 sm kenglikdagi tol xodadan kesib yasalgan to‘rtburchak rom o‘rnatilgan. Ustiga kigiz qoplangan eshik kerага-ga ip bilan bog‘lanib, uning ustiga “*solma eshik*” deb nomlangan chiydan yasalgan eshik o‘rnatilgan. Eshik-ning ikki yon qismi “*yon cho‘p*” yoki “*yondori*” (“*yon yo-g‘och*”), yuqori qismi “*manglay tayoq*” yoki “*manglay*”, pastki tomoni esa “*bo‘sag‘a*” deb atalgan [16. B. 43].

O‘tovning eshiklari alohida-alohida ikki tabaqa-li panjara ko‘rinishida bo‘lgan. Bunday yog‘ochdan tayyorlangan eshiklar qirg‘izlarda “*ergichak*”, “*ergil-chak*”, “*kaalcha*” deb nomlanib, romga mahkamlan-gan [17].

O‘tovning eshigi o‘rnatilganidan keyin uch-to‘rt uvuq ko‘chma uyning o‘rtasini ko‘tarib turish uchun chang‘aroq teshikchalaridan o‘tkazilgan. Uyning ke-ragasiga uvuqlarning ikkinchi tomoni mahkamlan-gan. Shu tartibda barcha uvuqlar birma-bir bog‘lab chiqilgan.

O‘tovning sinchi, ya’ni “uyning suyagi” tayyorlan-gandan keyin yon devorlar kigiz bilan qoplangan. Bunday kigizlar o‘tovning katta-kichikligiga qarab maxsus tayyorlangan. Bunday yon kigiz qirg‘izlarda “*tuurduk*” deb nomlansa, qipchoqlarda “*tutim*” deb nomlangan. Keragaga o‘ralgan kigiz ustidan jundan tayyorlangan naqsh tushirilgan arqon yordamida eshikning yondoriga bog‘langan va bunday jun arqon qirg‘izlarda “*beldov*” deb atalgan.

Yarimdoira shaklda maxsus tayyorlangan ikkita kigiz – “uzuk” bilan o‘tovning gumbaz qismi yopilgan. Ularning biri gumbazning old tomoniga, ikkinchisi esa orqa qismiga yopilgan va ular mos ravishda “*old uzuk*” hamda “*orqa uzuk*” deyilgan. Uchtadan “*uzuk bov*” har bir “*uzuk*”ka biriktirilgan bo‘lib, ular yordami-da “*uzuk*”lar bir-biriga mahkamlangan. To‘rtburchak shaklda maxsus tayyorlangan kigiz bilan o‘tovning chambarak qismi, ya’ni tepasi yopilgan. U qirg‘izlar-da “*to‘nduo‘k jabuu*” deb nomlangan. “*To‘nduo‘k bov*” arqon “*to‘nduo‘k jabuu*”ning har to‘rt uchiga biriktiri-lib, “*beldov*”ga, ya’ni uning uchta tomoniga mustah-kamlanib, bir uchi bog‘lanmay qolgan arqon bilan “*to‘nduo‘k*” (o‘tovning gumbazidagi tuynuk) ochib yopilgan. Shu tarzda o‘tovning ichiga toza havo va yorug‘lik tushishi ta’minlangan [17. B. 95]. Darvoqe, o‘tovning katta kichikligi o‘tov egasining ijtimoiy mav-qeyi va, albatta, moddiy imkoniyatiga bog‘liq bo‘lgan. O‘rganilayotgan davrda boy chorvadorlar o‘n va un-dan ham ko‘p qanotli o‘tovlar tiklagan bo‘lsa, qirg‘iz chorvadorlari, asosan, olti yoki sakkiz qanotli o‘tovlar tiklagan. Bunday katta o‘tovlar qirg‘izlarda “ordo uy” deb nomlangan [6. B. 156, B. 170].

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, Markaziy Osiyoning deyarli barcha chorvador etnos-lari o‘tovning gumbaz qismini kigiz bilan qoplashda shu usulni qo‘llaganlar. Shuningdek, chorvador xalq-larning barchasida o‘tovning ichki jihozlanishi ham deyarli o‘xshash bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib qirg‘izlar boshqa ko‘plab chorvador etnoslar kabi o‘tovni jihoz-lashda azaliy an’analarini saqlab kelganlar. Ushbu davrda o‘tovning ichkarisi ikkiga, ya’ni to‘r va o‘choq o‘rniga ajratilgan, o‘ngda erkaklar, chapda ayollar va bolalar qismiga bo‘lingan edi.

Janubiy qirg‘izlarda o‘tov ichiga maxsus osma tokchalar joylashtirilgan bo‘lib, ular “oyoq qo‘ygu” (oyoq kiyimlari uchun), “kosh-jabiq” (taqinchoq va ziraklar uchun) hamda “boshtiq” (bosh kiyim va ko‘ylaklar uchun) deb atalgan. Bu jihozlar kigiz, hayvon terisi va jun matolardan tayyorlanib, chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Shu bois ular faqat ki-yim yoki qimmatbaho buyumlar saqlanadigan oddiy osma javon emas, balki muhim bezak sifatida ham xizmat qilgan.

Yoz faslida o‘tov ichiga yerga palos yoyilgan, qishda esa avval qalin xashak yoki qamish bo‘yra to‘shalib, uning ustiga kigiz yopilgan. Badavlat chor-vadorlarda esa kigiz ustidan yana gilam solingan. O‘tovning orqa qismidagi keragaboshga to‘rtburchak shakldagi turli xurjunlar (xalta, to‘rva, ilgichlar) osib qo‘yilgan. Xaltalar kashta bilan bezatilgan jun mato-lardan, xurjunlar esa ko‘pincha rang-barang quroq matolardan tikilgan.

Barcha uy-joylarda bo‘lgani kabi o‘tovning to‘risi uyning eshigiga qarama-qarshi qismi hisoblangan. Odatda, to‘rining o‘ng tomonida oilaning yoshi katta erkaklari, to‘ridan chap tomonida ayollar va yosh bolalar joy olganlar. Eshikka yaqinroq uyning ichiga nisbatan o‘ng tomonda oshxona joylashgan. Shuningdek, eshikning yonida, uning chap tomonida otning egar va jabduqlari saqlangan. O‘tovning markaziy qismi “*kələmtə*” deb atalgan va uyning o‘rtasida “*to‘nduo‘k*”ka to‘g‘ri holda o‘choq joylashtirilgan [18. B. 19]. Qirg‘izlar o‘choqning ikki turi – “*tash əchəq*” va “*tulga əchək*”dan foydalanganlar.

Chorvadorlarning o‘ziga to‘q tabaqasi o‘tovning to‘ridagi devoriga gilam yoki bezakli kigiz ilib qo‘ygan. O‘tovning yeri, ya’ni pol qismiga kigiz yoki po‘stak (hayvon terisi) yozib, uning ustidan gilam to‘shalgan, kambag‘allar esa qamishdan to‘qilgan bo‘yra ustidan sholcha (olacha) yoki kigiz to‘shaganlar. Eshikdan o‘ng tarafda, to‘riga yaqin joyda “*jo‘k”* joylashgan. Bu yerga turli xil uy-ro‘zg‘or buyumlari joylashtirilgan, “*juk joy”* – “*yuk joyi”* degan tushunchani beradi. Bu yerda *chukitak* (yog‘ochdan yasalgan taglik) ustiga ko‘rpa-to‘shak, yostiqlar yig‘ib qo‘yilgan.

Deyarli barcha chorvador xalqlar o‘tovining ichki yon panjara qismi va tashqi tomoni kashtalangan mato bilan bezatilgan. Shuningdek, o‘tovning ichki qismiga kashta bezaklari berilgan “*oyna to‘rva”, “quroq to‘rva”, “bo‘g‘joma” va “napramach”* singari ko‘plab uy-ro‘zg‘or buyumlari joylashtirilgan [19. B. 20]. *Napramach* va *bo‘g‘joma* O‘rta Osiyo mintaqasida, shu jumladan, O‘zbekiston hududida yashovchi qirg‘iz chorvador oilalarda o‘tov ichini jihozlashda ishlatiladigan asosiy va eng zaruriy uy jihozi hisoblangan. Bunday jihozlar qirg‘izlarning moddiy madaniyatidagi o‘ziga xos jihatlardan biri bo‘lgan.

Shuningdek, o‘tovning ayollarga tegishli qismida xo‘jalik ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan buyumlar – uy jihozlari joylashtirilgan, shu bilan birgalikda turli xil mahsulotlar ham saqlangan.

Shunday qilib, o‘tovning ichki jihozlanishi chorvador oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va etnik an’analarini yaqqol aks ettirgan. Bu urf-odatlar uzoq yillar davomida shakllanib, xalqning qadriyatlari hamda estetik didini o‘zida mujassam etgan.

Shu tariqa chorvador aholi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, o‘tovlar hajmini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. O‘tovlar hajmiga ko‘ra ham farqlangan bo‘lib, ularning katta yoki kichikligi yon devor vazifasini bajaruvchi yog‘och panjara – qanotlar soniga qarab belgilangan. Tadqiq etilayotgan davrda Farg‘ona vodiysida istiqomat qilgan yarimo‘troq etnoslar o‘rtasida asosan to‘rt yoki olti qanotli o‘tovlar keng tarqalgan.

K.Shoniyozovning qayd etishicha, vodiy qipchoqlarining o‘tovlari ko‘p hollarda to‘rt yoki olti qanotdan tashkil topgan [8. B. 226]. Bizning fikrimizcha, yarimo‘troq aholi orasida aynan shunday hajmdagi o‘tovlar qurilishiga sabab o‘tovning avvalgidek butun oila yashaydigan asosiy turar-joy vazifasini yo‘qotib, asosan ota-onalar istiqomat qiladigan uyga aylanganidir [18. B. 19].

Biroq yarimko‘chmanchi qirg‘izlarda ko‘proq oltisakkiz qanotli, ayrim boy chorvadorlar tomonidan esa o‘n va undan ortiq qanotli qora uylar tiklangan [6. B. 156]. Shu tariqa chorvador aholi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘tov hajmini belgilash va uni o‘zgartirish imkoniga ega bo‘lgan.

Xullas, qirg‘iz o‘tovining tuzilishi va tiklash usuli, uning ichki jihozlanishi ko‘p jihatdan o‘tov egasining ijtimoiy va moddiy imkoniyatiga bog‘liq bo‘lgan.

Qirg‘izlarning ayrim guruhlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tuzilishi jihatidan ancha sodda bo‘lgan *kapa* va *olachiq* deb nomlangan boshpanalardan ham foydalanganlar. Kapalar tuzilishiga qarab quyidagi to‘rt guruhga ajraladi: aylana shaklda, ya’ni gumbaz qismi yarimdumaloq ko‘rinishda, tepa qismi konussimon ko‘rinishda, tomi ikki tomonga nishob (qiya) qilib to‘g‘riburchak shaklda yopilgan va cho‘zinchoq, tunelsimon shaklda bo‘lgan [20, 21].

K.I.Antipina o‘z ishida qirg‘izlarning adigen va jookesek urug‘larida ko‘chma uyning sodda ko‘rinishdagi ikki xil turini uchratgani va ular “olachiq” deb atalishini keltiradi. Ularning tiklanishidagi farqi shundaki, birinchi holatda faqat gumbaz tayoqlaridan iborat bo‘lib, kapa o‘rtasidagi uzun ustunning tepa qismiga gumbaz tayoqlarining ustki qismi biriktirilgan, ikkinchisida esa gumbaz tayoqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri chambarakka mahkamlangan. Qolaversa, K.I.Antipina tadqiqotida xodalardan tiklangan va kigiz bilan yopilgan oddiy ko‘rinishdagi “*olachiq*” suratini keltirgan hamda u mahalliy o‘troq aholi orasida bunday ko‘rinishdagi sodda ko‘chma uy *“kapa”* deb atalishini qayd etgan [6. B. 166–167]. Ilmiy adabiyotlarda O‘rta Osiyo xalqlarida mavjud bo‘lgan bunday vaqtinchalik va mavsumiy ko‘chma uylar haqida yetarlicha ma’lumotlar keltirilgan.

Qirg‘izlarning turarjoylari ichida an’anaviy ko‘chma uy-joylarining ya’ni vaqtinchalik va mavsumiy ko‘chma uylarning ham o‘ziga xos alohida o‘rni bo‘lgan. “*Kapa*” va “*olachiq*”lar asosan kambag‘al aholiga tegishli bo‘lib, bu hududdagi boshqa ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador etnoslarnikidan deyarli farq qilmagan.

XULOSA

Etnik me'morchilikdagi eng jadal evolyutsiya yarimo'troq va yarimko'chmanchi aholining turmush tarzida kuzatildi. An'anaviy xo'jalik tizimining inqirozi va hayot tarzining o'zgarishi natijasida ularning vaqtinchalik ichki konstruksiyalari qisqa muddatda turg'un turarjoy shakllariga almashdi. Shunga qaramay, ushbu o'tish davrida xalq me'morchiligi an'analari muayyan darajada o'z barqarorligini saqlab qoldi. Bu holat yarimo'troq va yarimko'chmanchi aholining bosqichma-bosqich o'troqlashishi hamda ko'chma boshpanalardan statsionar (doimiy) turarjoy majmualariga o'tishining tabiiy natijasi edi.

Adabiyotlar:

1. *Бўриев О., Раҳмонов Ф*. Этнология атамаларининг қомусий луғати. –Тошкент: Насаф, 2020. – 364 б.
2. *Плоских В.П*. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе: Илим, 1977. – 395 с.
3. *Наливкин В.* Краткая история Кокандского ханства. – Казань: типография Императорского университета, 1886. – 215 с.
4. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan shahri Davlatobod tumani "Yelxon" MFY. 2021-yil.
5. *Наливкин В., Наливкина М.* Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань: типография Императорского университета, 1886. – 245 с.
6. *Антипина К.И.* Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. – Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР, 1962. – 288 с.
7. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Baxmal tumani Jadik va Sutlibuloq, Zomin tumani Duoba, Yettikechuv hamda O'smonlisoy qishloqlari. 2023-yil.
8. *Шаниязов К.Ш*. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: Фан, 1974. – 342 с.
9. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Jalaquduq tumani Abdullabiy qishlog'i. 2020-yil.
10. *Василева Г.П.* Юрта – переносное жилище народов Средней Азии и Казахстана / В кн.: Кочевое жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 2000. – С. 20–49.
11. Потанин Г.Н. Путешествия по Монголии. – Москва: Географгиз, 1948. – 484 с.
12. *Харузин Н.Н.* История развития жилища у кочевых и полукочевых тюркских и монгольских народностей России. // Этнографическое обозрение. – 1896. – № 1–2. – С. 1–54.
13. *Абрамзон С.М*. Киргизы и их этнические и историко-культурные связи. – Фрунзе: Кыргызстан, 1990. – 480 с.
14. *Воронина В.Л.* Жилище народов Средней Азии и климат // В кн.: Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука. 1982. – С. 48–69.
15. *Ибрагимов О.И.* Мавсумий ва вақтинчалик турар жойларнинг ривожланиши тарихига доир (XIX аср охири – XX аср бошлари) // Вопросы археологии и этнографии. – Самарқанд, 1989. – С. 47–53.
16. Dala yozuvlari. Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Yangiobod qishlog'i. 2023-yil.
17. *Алымбаева Б.* Юрта киргизов – в прошлом и настоящим / В кн.: Кочевое жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 2000. – С. 92–106.
18. *Хужахонов И.М*. Этнорегиональные особенности традиционного жилища сельского населения Ферганской долины (конце XIX – начало XX века): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 2007. – 28 с.
19. *Абдуллаева Н.А.* Ўзбек каштачилигининг тарихий-этнографик хусусиятлари (Фарғона водийси материаллари асосида): Тарих фан. бўй. фалс. док (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз, 2022. – 26 с.
20. *Шаниязов К., Исмоилов Х*. Этнографические очерки материаль-ной культуры узбеков конец XIX – начало XX вв. – Ташкент: Фан, 1981. – 125 с.
21. *Джаханов У*. Сезонные жилища таджиков долины Соха в конце XIX – начале XX века / В кн.: Кочевые жилища народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 2000. – С. 65–77.

ETHNIC ASPECTS IN THE MATERIAL CULTURE OF KYRGYZ OF UZBEKISTAN

(On the example of residential places)

Otabek A. Abduraupov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2025. 7(91). 35-43.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: material culture, dwellings, Kyrgyz ethnic group, semi-nomadic population, traditional construction, kapa, alachik, Central Asia.

In the study of material culture in ethnology, the following classifications are accepted: dwellings and dwellings, clothing, and food. These, in turn, consist of several components.

Each of these components of material culture is a key indicator of the life of a particular ethnic group, which is reflected in the traditional material culture of each ethnic group in its ethnic history, ethno-economic and ethno-cultural characteristics. Dwellings occupy a special place in the complex of material culture.

In the scientific literature, it is customary to use such terms as “temporary,” “movable,” “movable” houses in relation to the traditional dwellings of pastoral tribes. Houses of this type were called “uy,” “kigiz uy,” “qirg‘iz uy,” “bo‘z uy,” “qora uy,” “oq uy,” “qizil uy,” and “o‘tov.” Among them, the term “yurt” is often used in scientific usage. After all, the “yurt” was the most popular type of mobile house.

It is worth noting that in the naming of mobile homes of the Kyrgyz, an ethno-territorial feature is also observed. For example, this type of mobile home, that is, a hut, was called “Kyrgyz house” among the population living in the foothills of the Fergana Valley. Such a name is interpreted as an expression of the preservation of the unique traditions of the Kyrgyz people in these houses. K.I.Antipina, in his work dedicated to the culture of the Kyrgyz, states that the term “Kyrgyz house” may have been given by the ethnic groups that purchased it from this ethnic group. However, the Kyrgyz themselves called mobile homes of this type by various other names. Kyrgyz people in the Bakhmal and Zamin districts of the Jizzakh region used the term “o‘tov” more often for this type of mobile home, but also called it “khan o‘tov”, “aq o‘tov”, “bo‘z uy”, and “qara o‘tov”.

In addition to being called “black house” among the Kipchaks, such mobile homes were also called “white house”, “house” and “orgov”. In the village of Abdullaby, in the Jalaquduk district of the Andijan region, where the Kyrgyz-Kipchak clan of the Kyrgyz people lives, the wedding house was called “orgov”.

At this point, it should be noted that the Kyrgyz huts, in terms of their structure and equipment, are in many ways similar to the mobile dwellings of the Central Asian cattle-breeding Uzbeks, Kazakhs, Turkmens, and Karakalpaks, but there are also ethnic differences in this regard. Such differences are mainly manifested in the shape of the dome part of the hut, its restoration and equipment. For example, the huts of the valley Kipchaks differ from the huts of other ethnic groups in the height of the dome part.

We will focus on the traditions of the Kyrgyz people, especially those living in Uzbekistan and adjacent territories, related to the restoration and equipment of their mobile homes. Like all pastoralists, the Kyrgyz people, when restoring and equipping their mobile homes, first of all, took into account local natural conditions. In addition, their traditional lifestyle, customs and values played an important role in this.

Thus, the structure and method of construction of the Kyrgyz hut, as well as its interior decoration, largely depended on the social and material capabilities of the hut owner.

References:

1. Buriev, O., Rakhmonov, F. (2020). Etnologiya atamalarining qomusiy lug‘ati [Dictionary of Ethnological Terms]. Tashkent: Nasaf.

2. Ploskih,V.P. (1977). Kirgizy i Kokandskoe hanstvo [Kirghiz and the Kokand Khanate]. Frunze: Ilim.

3. Nalivkin, V. (1886). Kratkaya istoriya Kokandskogo hanstva [Brief History of the Kokand Khanate]. Kazan: tipografiya Imperatorskogo universiteta.

4. (2021). Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan shahri Davlatobod tumani “Yelxon” MFY. [Field notes. “Yelkhon” MFY, Davlatabad district, Namangan city, Namangan region].

5. Nalivkin, V., Nalivkina, M. (1886). Ocherk byta zhenshchiny osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergany [Essay on the life of a woman of the sedentary native population of Fergana.]. Kazan: tipografiya Imperatorskogo universiteta.

6. Antipina, K.I. (1962). Osobennosti materialnoj kultury i prikladnogo iskusstva yuzhnyh kirgizov [Features of the material culture and applied art of the southern Kirghiz]. Frunze: Izdatel’stvo Akademii nauk Kirgizskoj SSR.

7. (2023). Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Baxmal tumani Jadik va Sutlibuloq, Zomin tumani Duoba, Yettikechuv hamda O‘smonlisoy qishloqlari [Field notes. Jadik and Sutlibuloq villages of Bakhmal district, Jizzakh region, Duoba, Yettikechuv and Osmonlisoy villages of Zamin district].

8. Shaniyazov, K.Sh. (1974) K etnicheskoj istorii uzbekskogo naroda (istoriko-etnograficheskoe issledovanie na materialah kipchakskogo komponenta) [On the ethnic history of the Uzbek people (historical and ethnographic research based on the Kipchak component)]. Tashkent: Fan.

9. (2020). Dala yozuvlari. Andijon viloyati Jalaquduq tumani Abdullabiy qishlog‘i [Field notes. Abdullaby village, Jalaquduk district, Andijan region].

10. Vasileva, G.P. (2000). Yurta – perenosnoe zhilishche narodov Srednej Azii i Kazahstana [Yurt – portable dwelling of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. In: Kochevoe zhilishche narodov Srednej Azii i Kazahstana [Nomadic dwelling of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Nauka. Pp. 20-49.

11. Potanin, G.N. (1948). Puteshestviya po Mongolii [Traveling around Mongolia]. Moscow: Geografgiz, 1948. – 484 s.

12. Haruzin, N.N. (1896). Istoriya razvitiya zhilishcha u kochevyh i polukochevyh tyurkskih i mongol’skih narodnostej Rossii [History of the development of housing among the nomadic and semi-nomadic Turkic and Mongol peoples of Russia]. *Etnograficheskoe obozrenie*. No 1-2. Pp. 1-54.

13. Abramzon, S.M. (1990). Kirgizy i ih etnicheskie i istoriko-kul’turnye svyazi [The Kyrgyz and their ethnic and historical-cultural ties]. Frunze: Kyrgyzstan.

14. Voronina, V.L.(1982). Zhilishche narodov Srednej Azii i klimat [Housing of the peoples of Central Asia and climate]. In: Zhilishche narodov Srednej Azii i Kazahstana [Housing of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Nauka. Pp. 48-69.

15. Ibragimov, O.I. (1989). Mavsumiy va vaqtinchalik turarjoylarning rivojlanishi tarixiga doir (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) [On the history of the development of seasonal and temporary settlements (late 19th and early 20th centuries)]. Voprosy arheologii i etnografii. Samarkand. Pp. 47-53.

16. (2023). Dala yozuvlari. Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Yangiobod qishlog‘i. [Field notes. Yangiabad village, Sardoba district, Syrdarya region].

17. Alymbaeva, B. (2000). Yurta kirgizov – v proshlom i nastoyashchim [The Kyrgyz Yurt – Past and Present]. In: Kochevoe zhilishche narodov Srednej Azii i Kazahstana [Nomadic Dwelling of the Peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Nauka. Pp. 92-106.

18. Khuzhakhanov, I.M. (2007). Etnoregional’nye osobennosti tradicionnogo jilishcha sel’skogo naseleniya Ferganskoj doliny (konce XIX – nachalo XX veka): [Ethnoregional features of traditional dwellings of the rural population of the Fergana Valley (late 19th – early 20th centuries)]. Abstract of Dissertation for the Candidate of History Sciences. Tashkent.

19. Abdullaeva, N.A. (2022). O‘zbek kashtachiligining tarixiy-etnografik xususiyatlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida): Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in History Sciences. Termiz.

20. Shaniyazov, K., Ismoilov, H. (1981). Etnograficheskie ocherki material’-noj kul’tury uzbekov konec

XIX – nachalo XX vv. [Ethnographic essays on the material culture of the Uzbeks in the late 19th – early 20th centuries]. Tashkent: Fan.

21. Dzhahanov, U. (2000). Sezonnye zhilishcha tadzhikov doliny Soha v konce XIX – nachale XX veka [Seasonal dwellings of the Tajiks of the Sokh Valley in the late 19th – early 20th centuries]. In: Kochevye zhilishcha narodov Srednej Azii i Kazahstana [Nomadic dwellings of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Nauka. Pp. 65-77.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDURAUPOV Otabek Azimjonovich – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: otabekabduraupov522@gmail.com